

## **BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SAVOD O'RGATISH DARSLARIDA KO'RGAZMALI VOSITALARNI O'RNI VA AHAMIYATI**

*Abdrimova Saida Sarvarbekovna*

*UrDPI Pedagogika fakulteti*

*239-Boshlang'ich ta'lim guruhi talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga savod o'rgatishda ko'rgazmalı vositalardan foydalanish va uning ahamiyati haqida fikr bildirilgan.

**Kalit so'zlari:** tovush, metod, ma'ruza metodi, multimedia vositalari, ta'limiy o'yinlar.

Inson faoliyatining tarixan shakllangan mazmuni gap shaklida umumlashtirgan holda, uni bayon etish va o'zlashtirishda nutqning ham ishtirok etishi birinchi navbatda turadi. Shunday ekan boshlang'ich sinfda talaffuz mashqlarini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish, o'quvchilar og'zaki nutqini rivojlantirish yoki unga to'sqinlik qiluvchi kuchlarni aniqlash, ushbu jarayonda, aniq maqsadni ko'zlagan holda pedagogik ta'sir ko'rsatish asosiy mezon hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun talaffuz mashqlarini ishlab chiqishda, talaffuz mashg'ulotlari o'quvchilarga faqatgina sayqallangan, ravon nutqni egallash yo'llarini emas, balki undan foydalanish madaniyati va mahoratini ham o'rgatib boradi. O'quvchi nutqini rivojlantirish murakkab jarayon bo'lib, unda barcha imkoniyatlar to'laligicha ishga solinsa, og'zaki va yozma ravishda to'g'ri, jozibador, ravon ifodalashga o'rgatish osonlashadi. Natijada esa o'quvchi nutqini rivojlantirishga keng yo'l ochiladi. Boshlang'ich sinfda talaffuz mashqlarini ishlab chiqish jarayonida o'quvchi nutqiga qo'yiladigan bir qancha talablar mavjud. Metodlar bir qancha asosiy guruhlardan iborat bo'lib, ularning har biri o'z navbatida kichik guruhlar va ularga kiruvchi alohida metodlarga bo'linadi. O'quv-biluv faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish

jarayonining o'zi esa axborot uzatish, qabul qilish, anglash va o'quv axborotlarini esda saqlashni hamda olinadigan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olishni nazarda tutishni hisob-ga olsak, birinchi guruh metodlariga so'z orqali axborotni uzatish va eshitish orqali qabul qilish metodlari og'zaki metodlar; hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar; ikkinchi guruh metodlariga o'quv axborotlarini ko'rgazmali uzatish va ko'rish orqali qabul qilish metodlari — ko'rgazmali metodlar: tasviriy, namoyish qilish va boshqalar; uchinchi guruh metodlariga o'quv axborotini amaliy mehnat harakatlari orqali berish (amaliy metodlar, mashqlar, laboratoriya tajribalari, mehnat harakatlari va boshqalar) kiradi. Sharq mutafakkirlarining ta'lim metodlari haqidagi fikrlari. Turli yosh guruhlarida ta'lim metodlarini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari. Ta'lim metodlarini faollashtirish yo'llari. O'qituvchining pedagogik mahorati tajribasida ta'lim metodlari samaradorligini oshirish yo'llari. Tovush kishining murakkab artikulyatsion faoliyat natijasi hisoblangan muayyan akustik ( eshitish ) va perseptiv (idrok etish) xususiyatlari bilan ajralib turadigan eng kichik nutq birligi. Nutq tovushlari artikulyatsion jihatdan talaffuz a'zolarining murakkab natijasida paydo bo'ladi. Nutq tovushlarini hosil qiluvchi vosita (tebrantiruvchi kuch) o'pkadan nafas yo'li orqali chiqib avval bo'g'izga va undan og'iz bo'shlig'iga va ba'zan burun bo'shlig'iga o'tadigan havo oqimidir. Dastlab o'quvchilarni tovush bilan tanishtirishda ularga yaqin va tushunarli bo'lgan so'zni tanlab, shu so'z tarkibidagi tovushlarni ajratish maqsadga muvofiqdir. Bu kabi misollar maktab darsliklarida ham keltirib o'tilgan. Shuni ta'kidlash joizki, savod o'rgatishda bir turdagi mashg'ulotlar uzoq davom etsa, o'quvchilar tez charchaydi? zerikadi va darsga nisbatan qiziqishi susayadi. Shuning uchun mashg'ulotlarning turi va usullarini o'zgartirib turish maqsadga muvofiqdir. Dastlabki mashq turlari ta'sirchanlik va mo'jizakorlik jihatidan yangi pedagogik texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan bo'lish kerak. Chunki o'quvchilar yozish va o'qishdek aqliy faoliyatga birdaniga kirisha olmaydilar. Savod o'rgatishning asosiy tamoyili adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda, qisqa va lo'nda, ta'sirchan va tabiiy, muloyim va ravon bo'lishi o'quvchilar diqqatini jamlashda katta ahamiyatga ega. O'qituvchi savod o'rgatish darslarida ba'zan sinf doskasiga bo'g'in, so'z

va gaplarni avvaldan dona- dona qilib yozib qo'yilsa, guruhga ovoz chiqarib o'qish qulay bo'ladi.

Ma'ruza ham bolalar xotirasiga, ham ular tafakkuriga mo'ljallab tashkil etilganda, uning samaradorligi yanada oshadi. tajribali o'qituvchilar ma'ruza metodining samaradorligini oshirish maqsadida turli variantlardan foydalanishadi.

1-variant. Ma'ruzada oldin o'quvchilar oldiga muammolar qo'yish. Muammoning bajarilishini muhokama qilish va shu asosda o'quv materiallarini mantiqiy izchillikda bayon etish. Ma'ruzadan oldin qo'yilgan muammo bolalarda bilishga ehtiyojni uyg'otadi. Shu tufayli o'quvchi ta'lim jarayonining faol sub'ektiga aylanadi.

1-variantda ma'ruza quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

O'qitish-metodlari O'qish metodlari Mavzuga oid muammoni tanlash -muammoni qabul qilish va qo'yish; tahlil qilish; muammoning bajarilishini-muammoni bajarishga oid tahlil qilish; tahlilda faol qatnashish;

muammoning bajarilishi asosida -o'qituvchi tushuntirishlarini o'quv materialini izchil bayon etish.

2-variant. Ma'ruzadan oldin bolalar faoliyatidan o'tgan omillarni, odatdagi muloqot yo'li bilan o'rganilgan bilimlarni tahlil etish. Bu variantda ma'ruza bolalar faoliyatidan o'tgan omillarni, bilimlarni tahlil qilish asosida tashkil etiladi.

3-variant. Oldin o'rganilgan bilimlar bilan bugungi Yangi o'quv materiali o'zaro daxldor bo'lsa, bilimlarni esga tushirish maqsadida suhbat o'tkaziladi. Suhbat yo'li bilan o'rganilgan va endi o'rganiladigan bilimlar o'rtasida tabiiy bog'lanish hosil qilinadi. Ma'ruza shu bog'lanishning davomi sifatida o'tkaziladi. Boshlang'ich sinf darslarini qiziqarli tashkil etish bilim o'zlashtirish jarayonidagi mashaqqatlarni osongina engib o'tishga yordam beradi. Shu maqsadda bitiruv malakaviy ishini bajarish davomida izlanishlar olib bordik, boshlang'ich ta'limning tarixi va mazmuni, didaktik o'yinlar, ularning turlari bilan tanishib chiqdik va tajriba-sinov ishlarini olib bordik. Natijada, quyidagi xulosalargakeldik:

1. Boshlang'ich sinf darslari uzluksiz ta'lim tizimida bilimli yoshlarni tayyorlashdagi muhim davr hisoblanadi. Shu sababli doimiy ravishda amaliyotchi o'qituvchilar, tadqiqotchilar metodist olimlar faoliyatining muhim tadqiqot ob'ekti bo'lib kelmoqda.

2. Boshlang'ich sinf darslari asosan alifbe, ona tili va o'qish darslarishaklida amalga oshirilib, bunday darslarda analitik metod, sintetik metod, harfiy metod bilan birgalikda ta'limiy o'yinlardan ham keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

3. Kichik maktab yoshidagi bolalar hayoti va faoliyatida asosiy etakchi o'rin tutadi. Ular har bir topshiriq yoki vazifani o'yin bilan uyg'unlashtirgan holda amalga oshirishga harakat qiladilar. Tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'yindan bolalar uchun yangi va murakkab bo'lgan ta'lim jarayonini qiziqarli tashkil etish usuli sifatida foydalana oladilar.

4. Ta'limiy o'yinlar boshlang'ich ta'lim jarayonini qiziqarli tashkil etish bilan birga bolalarni aqlan va jismonan chiniqtirish vazifalarini ham o'taydi.

5. Boshlang'ich ta'lim jarayonida ona tili va o'qish darslarining tashkil etilganligi ta'limiy o'yinlarning imkoniyatlaridan to'liq foydalanish kerakligini anglatadi.

6. Boshlang'ich ta'lim jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanishga doir metodik qo'llanmalar, ko'rsatmalar, ko'rgazmali qurollar tayyorlanishi va nashr etilishi hozirgi kun talablaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiya bu ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib boorish fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda o'quvchilarga yangi bilim berishdan iboratdir. Ta'limda hech bir metod sof holda qo'llanilmaydi. har bir ta'lim metodi tarkiban o'qitish metodlari va o'qish metodlaridan iborat. O'qitish va o'qish metodlarining bir-biriga mosligi, o'qitish va o'qish faoliyatlarining o'zaro muvofiqlashuvini ta'minlaydi. Bu o'z navbatida didaktik ta'sirning o'qitish va o'qish faoliyatlari o'zaro ta'sirining samarali amal qilishiga olib keladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. G'oyibnazar Ernazarov. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent. "Ilm ziyo", 2013. 9-bet.
2. Tolipov U.K., Sharipov Sh.S. O'quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. – T., Fan, 2012
3. Yo'ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T: Fan va texnologiya, 2008